



## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 43 720 tani (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 37 680 ta) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar, yillar kesimida  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda.)

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023-yil yanvar–sentabr holatiga ko‘ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2018-yilning mos davri bilan solishtirilganda 2 758 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2018-yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 2 095 taga, oilaviy korxonalar 298 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	1 463	12,2 %	Ishtixon t.	320	14,4 %
Pastdarg‘om t.	565	17,0 %	Payariq t.	318	14,3 %
Samarqand t.	524	15,4 %	Jomboy t.	268	14,5 %
Urgut t.	468	13,4 %	Nurobod t.	252	17,2 %
Bulung‘ur t.	403	21,1 %	Paxtachi t.	218	16,1 %
Kattaqo‘rg‘on t.	334	14,3 %	Narpay t.	214	13,5 %
Oqdaryo t.	330	17,0 %	Kattaqo‘rg‘on sh.	210	14,3 %
Toyloq t.	330	16,5 %	Qo‘shrabot t.	182	15,7 %

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish (o'zgarish) sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar savdo sohasida 16 361 tani, sanoatda 6 246 tani, yashash va ovqatlanishda 3 387 tani, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 920 tani, qurilishda 2 517 tani tashkil etmoqda.



## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	11 991	Oqdaryo t.	1 942
Urgut t.	3 499	Bulung'ur t.	1 906
Samarqand t.	3 397	Jomboy t.	1 842
Pastdarg'om t.	3 320	Narpay t.	1 590
Kattaqo'rg'on t.	2 333	Nurobod t.	1 469
Ishtixon t.	2 225	Kattaqo'rg'on sh.	1 467
Payariq t.	2 220	Paxtachi t.	1 355
Toyloq t.	2 005	Qo'shrabot t.	1 159


2023-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 6 253 ta bo'lib, shundan;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar 6 236 ta;

-yirik korxonalar 17 tani tashkil etdi.



## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 427	13,5 %	Narpay t.	207	15,8 %
Kattaqo'rg'on sh.	206	16,0 %	Payariq t.	312	16,6 %
Oqdaryo t.	322	18,9 %	Pastdarg'om t.	561	19,6 %
Bulung'ur t.	398	24,2 %	Paxtachi t.	214	19,3 %
Jomboy t.	264	16,3 %	Samarqand t.	512	16,5 %
Ishtixon t.	313	16,3 %	Nurobod t.	244	19,7 %
Kattaqo'rg'on t.	328	16,5 %	Urgut t.	448	15,1 %
Qo'shrabot t.	172	18,8 %	Toyloq t.	325	18,7 %

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish (o'zgarish) sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023-yil 1-oktabr holatiga 37 881 taga yetib, 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 152,0 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 43,2 foiz, sanoat – 16,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,6 foiz, qurilish – 6,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,9 foiz, tashish va saqlash – 2,7 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,4 foiz, boshqa turlari – 10,5 foiz.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	10 599	Oqdaryo t.	1 703
Samarqand t.	3 101	Bulung'ur t.	1 643
Urgut t.	2 970	Jomboy t.	1 616
Pastdarg'om t.	2 866	Narpay t.	1 306
Kattaqo'rg'on t.	1 984	Kattaqo'rg'on sh.	1 291
Ishtixon t.	1 922	Nurobod t.	1 240
Payariq t.	1 876	Paxtachi t.	1 109
Toyloq t.	1 738	Qo'shrabot t.	917

2023-yil yanvar–sentabr holatiga ko'ra, birlikda





## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 92 tadan 186 taga (o'sish 94 taga) yetdi.



## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 421	13,5 %	Ishtixon t.	313	16,3 %
Pastdarg'om t.	560	19,6 %	Payariq t.	311	16,6 %
Samarqand t.	509	16,5 %	Jomboy t.	263	16,4 %
Urgut t.	448	15,1 %	Nurobod t.	244	19,8 %
Bulung'ur t.	397	24,2 %	Paxtachi t.	214	19,4 %
Kattaqo'rg'on t.	328	16,6 %	Narpay t.	207	15,9 %
Toyloq t.	324	18,7 %	Kattaqo'rg'on sh.	205	16,0 %
Oqdaryo t.	320	18,9 %	Qo'shrabot t.	172	18,8 %

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish (o'zgarish) sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlarining viloyatga nisbatan ulushi Samarqand shahrida (27,8 foiz), Samarqand (8,2 foiz), Urgut (7,8 foiz) va Pastdarg'om (7,6 foiz) tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	10 506	Oqdaryo t.	1 697
Samarqand t.	3 082	Bulung'ur t.	1 638
Urgut t.	2 959	Jomboy t.	1 608
Pastdarg'om t.	2 853	Narpay t.	1 303
Kattaqo'rg'on t.	1 975	Kattaqo'rg'on sh.	1 285
Ishtixon t.	1 918	Nurobod t.	1 235
Payariq t.	1 870	Paxtachi t.	1 103
Toyloq t.	1 732	Qo'shrabot t.	916




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Nurobod t.	412
Pastdarg‘om t.	340
Samarqand t.	313
Kattaqo‘rg‘on t.	310
Bulung‘ur t.	208
Urgut t.	198
Oqdaryo t.	173
Payariq t.	144
Jomboy t.	134
Ishtixon t.	119
Paxtachi t.	118
Samarqand sh.	116
Qo‘shrabot t.	109
Narpay t.	103
Toyloq t.	75
Kattaqo‘rg‘on sh.	48



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 217
Urgut t.	843
Samarqand t.	617
Pastdarg'om t.	492
Ishtixon t.	366
Kattaqo'rg'on t.	349
Jomboy t.	310
Toyloq t.	310
Bulung'ur t.	271
Oqdaryo t.	267
Payariq t.	260
Kattaqo'rg'on sh.	257
Paxtachi t.	205
Narpay t.	180
Qo'shrabot t.	159
Nurobod t.	143



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'zgarish sur'ati 72,4 foizni tashkil etgan.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,2 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 0,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	803
Payariq t.	211
Pastdarg'om t.	195
Urgut t.	166
Samarqand t.	129
Toyloq t.	122
Oqdaryo t.	121
Kattaqo'rg'on t.	119
Kattaqo'rg'on sh.	110
Jomboy t.	108
Ishtixon t.	99
Narpay t.	74
Paxtachi t.	70
Qo'shrabot t.	68
Bulung'ur t.	61
Nurobod t.	61



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati, 59,0 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati 16,0 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi bo'yicha jamiga nisbati 25,0 foizni tashkil etdi.

403



Fuqarolik obyektlarini qurish

628

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

1 486


Bino va inshootlar qurish



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	4 424
Pastdarg'om t.	1 345
Samarqand t.	1 339
Urgut t.	1 104
Ishtixon t.	921
Payariq t.	871
Kattaqo'rg'on t.	795
Oqdaryo t.	780
Toyloq t.	778
Bulung'ur t.	768
Jomboy t.	691
Narpay t.	686
Kattaqo'rg'on sh	564
Paxtachi t.	532
Qo'shrabot t.	415
Nurobod t.	348



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 16 320 tasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasidagi ulishi 72,4 foizni;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasidagi ulishi 17,5 foizni;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,1 foizni tashkil etdi.

1 656

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 865

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


11 840

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 300
Samarqand t.	263
Urgut t.	213
Pastdarg'om t.	172
Kattaqo'rg'on t.	167
Payariq t.	154
Toyloq t.	153
Ishtixon t.	144
Oqdaryo t.	141
Jomboy t.	141
Narpay t.	123
Bulung'ur t.	115
Kattaqo'rg'on sh.	109
Nurobod t.	74
Qo'shrabot t.	70
Paxtachi t.	48



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 387 tani tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 12,3 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziqovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 87,7 foiz ulushini tashkil etdi.

417

Yashash bo'yicha xizmatlar



2 970


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	291
Payariq t.	50
Urgut t.	50
Oqdaryo t.	35
Kattaqo'rg'on sh.	34
Ishtixon t.	33
Samarqand t.	29
Pastdarg'om t.	27
Bulung'ur t.	23
Toyloq t.	19
Kattaqo'rg'on t.	18
Jomboy t.	13
Narpay t.	11
Qo'shrabot t.	10
Nurobod t.	7
Paxtachi t.	5



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, aloqa yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 39,0 foizini tashkil etdi.

Axborot xizmati ko'rsatish hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 12,2 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 35,1 foizini tashkil etdi.



2023-yil 1-oktabr holatiga koʻra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	398
Samarqand t.	68
Toyloq t.	64
Urgut t.	60
Nurobod t.	48
Oqdaryo t.	47
Payariq t.	45
Pastdargʻom t.	45
Ishtixon t.	43
Kattaqoʻrgʻon sh.	42
Jomboy t.	40
Bulungʻur t.	26
Kattaqoʻrgʻon t.	24
Narpay t.	24
Paxtachi t.	18
Qoʻshrabot t.	13



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 899 ta yoki 89,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

-97,3 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻsish surʼati 2022-yilning mos davriga nisbatan 96,2 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 2,1 foizni tashkil etib, oʻsish surʼati 116,6 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,6 foizini tashkil etib, oʻsish surʼati 75,0 foizni tashkil etdi.

6

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

21




978

Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	386
Samarqand t.	94
Urgut t.	84
Toyloq t.	84
Jomboy t.	61
Pastdarg'om t.	60
Bulung'ur t.	41
Ishtixon t.	35
Payariq t.	34
Narpay t.	31
Oqdaryo t.	26
Kattaqo'rg'on t.	26
Kattaqo'rg'on sh.	21
Paxtachi t.	19
Nurobod t.	18
Qo'shrabot t.	13



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

-quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'zgarish sur'ati 84,1 foizni tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'zgarish sur'ati 84,1 foizni;

- pochta va kuryerlik yo'nalishi 82,5 foizni tashkil etdi;


- havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 5,0 foizni oshgan.





### Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2023-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 141	14,5 %	Payariq t.	179	17,3 %
Samarqand t.	373	19,3 %	Toyloq t.	171	20,8 %
Bulung'ur t.	325	31,2 %	Oqdaryo t.	169	16,8 %
Urgut t.	283	15,4 %	Ishtixon t.	154	19,8 %
Pastdarg'om t.	278	19,7 %	Qo'shrabot t.	145	22,7 %
Nurobod t.	229	22,3 %	Jomboy t.	132	15,1 %
Kattaqo'rg'on t.	221	19,4 %	Paxtachi t.	112	19,3 %
Kattaqo'rg'on sh.	181	17,7 %	Narpay t.	93	22,2 %


2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish (o'zgarish) sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 37 881 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 23 420 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi va tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	7 863	Kattaqo'rg'on sh.	1 021
Samarqand t.	1 930	Oqdaryo t.	1 005
Urgut t.	1 836	Jomboy t.	875
Pastdarg'om t.	1 414	Toyloq t.	822
Kattaqo'rg'on t.	1 141	Ishtixon t.	778
Bulung'ur t.	1 041	Qo'shrabot t.	639
Payariq t.	1 032	Paxtachi t.	579
Nurobod t.	1 025	Narpay t.	419


2023-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Hududlar kesimida


Pastdarg'om t.	175	29,5 %
Ishtixon t.	133	19,5 %
Oqdaryo t.	113	32,2 %
Urgut t.	94	14,1 %
Toyloq t.	94	21,7 %
Jomboy t.	82	28,3 %
Narpay t.	81	15,1 %
Paxtachi t.	68	18,0 %

Samarqand sh.	62	7,5 %
Samarqand t.	51	19,5 %
Kattaqo'rg'on t.	36	14,4 %
Payariq t.	15	13,4 %
Bulung'ur t.	13	6,5 %
Qo'shrabot t.	11	9,0 %
Kattaqo'rg'on sh.	4	3,1 %
Nurobod t.	3	2,1 %

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 71,8 foizni tashkil etgan.


Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Samarqand shahrida – 828 ta, Ishtixon – 681 ta, Urgut – 669 ta, Pastdarg'om -593 ta va Narpay tumanlarida – 538 ta.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	828	Jomboy t.	290
Ishtixon t.	681	Samarqand t.	262
Urgut t.	669	Kattaqo'rg'on t.	250
Pastdarg'om t.	593	Bulung'ur t.	201
Narpay t.	538	Nurobod t.	146
Toyloq t.	433	Kattaqo'rg'on sh.	131
Paxtachi t.	378	Qo'shrabot t.	122
Oqdaryo t.	351	Payariq t.	112

2023-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	222	12,1 %	Jomboy t.	50	11,5 %
Payariq t.	117	16,7 %	Oqdaryo t.	40	11,9 %
Pastdarg'om t.	108	13,0 %	Paxtachi t.	34	24,8 %
Samarqand t.	88	9,8 %	Narpay t.	33	10,1 %
Urgut t.	71	16,3 %	Ishtixon t.	26	6,0 %
Kattaqo'rg'on t.	68	12,3 %	Kattaqo'rg'on sh.	21	16,2 %
Bulung'ur t.	60	15,7 %	Qo'shrabot t.	14	13,2 %
Toyloq t.	60	12,6 %	Nurobod t.	12	21,8 %


2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish (o'zgarish) sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 2022-yilning mos davriga nisbatan 79,0 foizni tashkil etgan.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 107,0 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	1 837	Ishtixon t.	431
Samarqand t.	894	Bulung'ur t.	381
Pastdarg'om t.	831	Oqdaryo t.	335
Payariq t.	702	Narpay t.	326
Kattaqo'rg'on t.	553	Paxtachi t.	137
Toyloq t.	478	Kattaqo'rg'on sh.	130
Jomboy t.	436	Qo'shrabot t.	106
Urgut t.	435	Nurobod t.	55

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot


2023-yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Boshqa turlar

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

### Hududlar kesimida


Samarqand sh.	54	20,8 %	Pastdarg‘om t.	2	7,7 %
Samarqand t.	6	19,4 %	Urgut t.	2	4,8 %
Oqdaryo t.	5	17,2 %	Kattaqo‘rg‘on sh.	1	6,7 %
Kattaqo‘rg‘on t.	3	23,1 %	Ishtixon t.	1	7,1 %
Qo‘shrabot t.	3	15,0 %	Payariq t.	1	9,1 %
Toyloq t.	3	25,0 %	Paxtachi t.	1	12,5 %
Bulung‘ur t.	2	11,8 %	Nurobod t.	1	10,0 %
Jomboy t.	2	5,9 %			




2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish (o'zgarish) sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 9,6 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 103 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 18,4 foiz) va Xitoy Xalq Respublikasi (ulushi 14,6 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	260	Kattaqo'rg'on sh.	15
Urgut t.	42	Ishtixon t.	14
Jomboy t.	34	Kattaqo'rg'on t.	13
Samarqand t.	31	Toyloq t.	12
Oqdaryo t.	29	Payariq t.	11
Pastdarg'om t.	26	Nurobod t.	10
Qo'shrabot t.	20	Paxtachi t.	8
Bulung'ur t.	17	Narpay t.	6

2023-yil yanvar–sentabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 319 tasi qo'shma korxonalar, 229 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


## Xorijiy korxonalar

## Qo'shma korxonalar

<b>135</b>	Samarqand sh.	<b>125</b>
<b>4</b>	Kattaqo'rg'on sh.	<b>11</b>
<b>13</b>	Oqdaryo t.	<b>16</b>
<b>7</b>	Bulung'ur t.	<b>10</b>
<b>9</b>	Jomboy t.	<b>25</b>
<b>4</b>	Ishtixon t.	<b>10</b>
<b>5</b>	Kattaqo'rg'on t.	<b>8</b>
<b>13</b>	Qo'shrabot t.	<b>7</b>
<b>2</b>	Narpay t.	<b>4</b>
<b>6</b>	Payariq t.	<b>5</b>
<b>7</b>	Pastdarg'om t.	<b>19</b>
<b>2</b>	Paxtachi t.	<b>6</b>
<b>10</b>	Samarqand t.	<b>21</b>
<b>2</b>	Nurobod t.	<b>8</b>
<b>7</b>	Urgut t.	<b>35</b>
<b>3</b>	Toyloq t.	<b>9</b>

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Xorijiy korxonalar



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

## Qo'shma korxonalar



Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Samarqand viloyat statistika  
boshqarmasi statistik registrlarni  
yuritish boʻlimi  
Tel.: 66-235-14-42